

**SIRDARYO VILOYAT HUDUDINING TABIIY GEOGRAFIK JOYLASHUVI VA
TUPROQ-IQLIM SHAROITLARI**

Nurulayeva Shohsanam Baxtiyor qizi
Guliston davlat universiteti magistranti

O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati tabiiy geografik jihatdan 39⁰30 va 41⁰20 shimoliy kenglik va 66⁰30 va 69⁰20 sharqiy uzoqlik oralig'ida joylashgan. Bu viloyat ma'muriy jihatdan shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi, g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh.

Sirdaryo viloyati mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotining 3,6 foizini, Mirzacho'l iqtisodiy rayonining 40,8 foizini beradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish orqali rivojlangan bu tarmoqda dehqonchilik yetakchilik qiladi. Hozirgi paytda Sirdaryo viloyatining umumiy ekin maydonlari 260 ming gektar bo'lib, shundan 104,4 ming gektarga donli ekinlar ekiladi. Qolgan qismida paxta, poliz va sabzavot yetishtiriladi. 2010 yilda viloyatdagi 104,4 ming gektarga ekilgan donli ekinlardan 247,2 ming tonna xosil olingan (asosan bug'doy), hosildorlik o'rtacha 22,8 sentner. Dehqonchilikning yetakchi tarmog'i paxtachilik bo'lsada, keyingi yillarda uning ekin maydonlari anchaga qisqardi. Hozirgi vaqtda Sirdaryo viloyati barcha ekin maydonlarining 53,1 foiziga paxta ekilmoqda. Poliz va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish ham muxim qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'lib, viloyat bu jihatdan mintaqalar ichida yetakchilardan hisoblanadi. Aynan ana shu mahsulot turlarining yalpi xosili Respublika umumiy ko'rsatkichida 3,7 foizni, shundan poliz ekinlari 54,1 foiz, qolgani sabzavotlarga to'g'ri keladi. Poliz ekinlari yetishtirish bo'yicha (63,4 ming tonna) viloyatlar orasida mazkur viloyat birinchi o'rinni egallaydi

Sirdaryo viloyati 1963 yilda tashkil topgan. Viloyat xududida 9 ta tuman, 5 ta shahar va 20 ta shaharchalar mavjud. Sirdaryo viloyatining umumiy maydoni 5,3 ming km² bo'lib, Mirzacho'l iqtisodiy rayoni hududining 19,9 foizini tashkil etadi. Aholisi, 2024 yil ma'lumotlariga binoan, 917,9 ming kishi yoki Respublika jami aholisining 2,6 foiziga teng. Ma'muriy markazi Guliston shahri.

Sirdaryo viloyatidagi asosiy tabiiy geografik xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Hududining geografik o'rni 40⁰25 shimoliy kenglik va 68⁰40 sharqiy uzunlikda joylashgan;

2. Hududning okeandan uzoqligi 1000 km ekanligi iqlimini shakllanishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir;

3. Sirdaryo viloyati O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Sirdaryoning chap qirg'og'idan boshlanuvchi Mirzacho'lining kattagina maydonni egallagan.

Sirdaryo viloyati xududi Turon tuproq iqlimiy mintaqasida joylashgan hamda tuproq qoplamlarini hilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Sirdaryo viloyati bo'z tuproqlar zonasi, asosan tekisliklardan iborat bo'lib, bu hududda namchil(gidromorf) va yarim namchil(mezogidromorf) tuproqlar kengroq tarqalgan. Bu tuproqlar bo'z tuproqlar balandlik mintaqasining eng quyi bo'g'inida joylashgan(Turkiston tog' tizmasi).

Viloyatning Xovos, Mehnatobod, Mirzaobod, Sardoba tumanlarida dastlab och tusli bo'z tuproqlar hosil bo'lish jarayoniga yer osti suvlarining ta'siri bo'lmagan, lekin keyinchalik sug'orish ishlari boshlanishi natijasida yer osti suvlari sathi keskin ko'tarilib tuproq paydo bo'lish jarayoniga ta'sir qila boshlagan, natijada oraliq ya'ni o'tuvchi tuproqlar hosil bo'la boshlagan (o'tloqi-bo'z, bo'z-o'tloqi, sho'rlangan va h. k.).

Viloyatimiz xududida tarqalgan bo'z tuproqlar tipi o'z navbatida to'q tusli, tipik va och tusli bo'z tuproqlar tipchalariga bo'linadi.

Bo'z tuproqlar mintaqasida tarqalgan sug'oriladigan bo'z tuproqlarga:

1. Sug'oriladigan to'q tusli bo'z tuproqlar

2. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar
3. Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar
4. Sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar
5. Sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar
6. Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar
7. Sug'oriladigan botqoq-o'tloqi va o'tloq-botqoq tuproqlar kiradi.

Sirdaryo viloyatining yer zahirasi:

Sirdaryo viloyatini umumiy maydoni mamuriy chegarasi ichida 5,3km² ni tashkil etadi. Umumiy maydoninig eng ko'p qismini, 54,8% ni bo'z-o'tloqi tuproqlar tashkil etadi. Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar jami 2796 gektar bo'lib, faqat Xovos tumanida tarqalgan. Sug'oriladigan o'tloqi – botqoq tuproqlar juda oz qolgan, jami 283 gektar bo'lib, ular Sayxunobod tumanida tarqalgan. Umuman, Sirdaryo viloyatida yuqori sifatli yer zahiralari hozirgi kunda juda oz qolgan, bu yerlar (qo'riq- tashlandiq) sug'orib dehqonchilik qilish uchun tayyorlashga va qayta tiklashga katta mablag' talab etadi.

Viloyatimizda tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning asosiy qismi har xil darajada sho'rlangan.

Sug'oriladigan maydonlarda tuproqning ikkilamchi sho'rlanishiga asosiy sabab minerallashgan sizot suvlarining yer yuzasiga yaqin joylashganligi va asosan bug'lanishga sarflanishidir. Bu sug'orish suvlarining kanal tizimida va dalada yo'qotilishi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kholboev B. Amount of Easily Soluble Salts in Water, Type and Level of Salinity in Irrigated Meadow-Gray Soils of Zomin Cone Spread and Its Effect on Soil Melioration. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences ISSN NO: 2771-8840 <https://zienjournals.com> 30-11-2022. P 122-126 crops with mineralized water. American Journal Of Biomedical science pharmaceutical Innovation.4(01),71–75.2024. <https://doi.org/10.37547/ajbsp/Volume04Issue01-11>
2. Kholboev B., Japakov N., Rakhmonov I., Akhunboboyev M., Oblokhlov M. Formation, morphology and mechanical composition of meadow-alluvial soils in the Jizzakh desert. BIO Web of Conferences 105, 05001 (2024) <https://doi.org/10.1051/bioconf/202410505001> AEGISD-IV 2024 P
3. Kholboev B., Khujabekova D., Esanbaeva N., Nurulayeva Sh. Assessment of land reclamation condition of Mirzachol. Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences,2(5), 1–6., 2024. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/8/article/view/1295>
4. Ахмедов А.У., Баиров А.Ж., Парпиев Г.Т. Опыт почвенно-экологического и мелиоративного мониторинга на ключевых участках Голодной степи // Аграрная наука - сельскому хозяйству: сборник статей. В 3 кн. / Международная научно-практическая конференция. - Барнаул: Изд-во АГАУ, 2006. Кн. 1. - С. 59-62.
5. Ахмедов А.У., Тошбеков Ў., Парпиев Ф.Т., Рўзметов М.И. Сирдарё вилояти стационар-экологик майдончаларида тупроқ-мелиоратив ҳолатини баҳолаш мониторинг тадқиқотлари тажрибаси // ГулДУ ахборотномаси. - Гулистон: «Университет», 2004. №3-4. - Б. 36-39.
6. Сирдарё ва Жиззах вилоятларининг суғориладиган тупроқлари / Монография. - Тошкент: ЎзРФА «Фан» нашр., 2005.
7. Сирдарё ва Жиззах вилоятларининг суғориладиган тупроқлари / Монография. - Тошкент: ЎзРФА «Фан» нашр.
8. Сирдарё вилояти // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Давлат” илмий нашриёти, 2003. 7-жилд.